

"Hamkorbank" ATB da shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash va himoya qilish

SIYOSATI

1-bob. Umumiy qoidalar

Qo'llash sohasi va maqsadi

1. Mazkur Siyosat "Hamkorbank" ATB (keyingi o'rinlarda-bank)ning shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash va himoya qilish sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi asosiy hujjatdir.

2. Siyosat "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni, "Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishning namunaviy tartibi" (ro'yhat raqami 3478-son, 15.11.2023-y) shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash va himoya qilish sohasidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

3. Siyosat shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashning maqsadlari, shartlari va usullarini, subyektlar ro'yxatini, Bank va subyektlarning shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash bo'yicha huquq va majburiyatlarini, shaxsga doir ma'lumotlarning hajmi va toifalarini, subyektlarning toifalarini, shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashda Bankning majburiyatlarini bajarilishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilaydi.

4. Ushbu Siyosatda quyidagi atama va ta'riflardan foydalanilgan:

shaxsga doir ma'lumotlar — muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot;

shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash – avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki bunday vositalardan foydalanmasdan, shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, yozib olish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), chop etish, foydalanish, uzatish (tarqatish, taqdim etish, tanishish huquqini berish), egasizlantirish, bloklash, o'chirish, yo'q qilishni o'z ichiga olgan shaxsga doir ma'lumotlar bilan amalga oshiriladigan har qanday harakat (operatsiya) yoki harakatlar (operatsiyalar) majmui;

shaxsga doir ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash – shaxsga doir ma'lumotlarni hisoblash texnikasidan foydalangan holda qayta ishlash;

shaxsga doir ma'lumotlarni bloklash – shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashni vaqtincha to'xtatish (shaxsiy ma'lumotlarni aniqlashtirish uchun qayta ishlash zarur bo'lgan holatlardan tashqari);

shaxsga doir ma'lumotlar axborot tizimi – ma'lumotlar bazalarida joylashgan hamda axborot texnologiyalari va texnik vositalari yordamida qayta ishlanishi ta'minlanadigan shaxsga doir ma'lumotlar to'plami;

axborot – manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'i nazar barcha ma'lumotlar (xabarlar);

shaxsga doir ma'lumotlarni egasizlantirish – amalga oshirilishi natijasida shaxsga doir ma'lumotlarning muayyan subyektga tegishliligini aniqlash imkoni bo'lmay qoladigan harakatlar;

shaxsga doir ma'lumotlar subyekt (subyekt) — shaxsga doir ma'lumotlar o'ziga taalluqli bo'lgan jismoniy shaxs;

shaxsga doir ma'lumotlarni taqdim etish – shaxsga doir ma'lumotlarni ma'lum bir shaxs yoki shaxslar davrasi uchun oshkor qilishga qaratilgan harakatlar;

shaxsga doir ma'lumotlarni tarqatish – shaxsga doir ma'lumotlarni nomuayyan doiradagi shaxslarga oshkor etishga, shu jumladan shaxsga doir ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida hammaga ma'lum qilishga, Internet jahon axborot tarmog'iga joylashtirishga yoki shaxsga doir ma'lumotlardan biror-bir boshqa usul bilan foydalanish imkonini berishga qaratilgan harakatlar;

shaxsga doir ma'lumotlarni transchegaraviy uzatish – shaxsga doir ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga uzatish;

uchinchi shaxs — subyekt, mulkdor va (yoki) bank bo'lmagan, ammo shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish bo'yicha holatlar yoki munosabatlar orqali ular bilan bog'liq bo'lgan har qanday shaxs.

Bunday munosabatlarga misol sifatida xizmat ko'rsatuvchi provayderlar bilan o'zaro bog'liq shartnomalar bo'lishi mumkin, bunda Bank Subyekt va provayder o'rtasida vositachi hisoblanadi;

shaxsga doir ma'lumotlarni yo'q qilish - shaxsga doir ma'lumotlarning moddiy tashuvchilarini yo'q qilish va (yoki) shaxsga doir ma'lumotlar axborot tizimidagi shaxsga doir ma'lumotlarning tuzilishini tiklash imkonini yo'qotishga qaratilgan harakatlar.

5. Siyosat bank tomonidan qayta ishlanadigan shaxsga doir ma'lumotlarning barcha subyektlari va shaxsga doir ma'lumotlar toifalariga nisbatan qo'llaniladi.

6. Mazkur hujjat talablariga rioya etish barcha xodimlar uchun majburiydir.

2-bob. Asosiy qoidalar

1-§. Subyektning huquqlari

7. Shaxsga doir ma'lumotlari Bank tomonidan qayta ishlanadigan subyektlar quyidagi huquqlarga ega:

- Bank tomonidan o'ziga tegishli shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlanishi to'g'risida to'liq ma'lumot olishga, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;
- o'ziga tegishli shaxsga doir ma'lumotlariga aniqlik kiritish, agar shaxsga doir ma'lumotlar to'liq bo'lmagan, eskirgan, noto'g'ri, noqonuniy ravishda olingan yoki qayta ishlashning belgilangan maqsadi uchun zarur bo'lmasa, ularni bloklash yoki yo'q qilish;
- o'ziga tegishli shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlashga berilgan rozilikni qaytarib olish;
- qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan o'zining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shu jumladan yetkazilgan zararni va (yoki) ma'naviy zararni sud tartibida qoplash uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan choralarni ko'rish.

2-§. Bankning huquq va majburiyatlari

8. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- subyektlardan yoki subyekt vakillaridan ularga tegishli shaxsga doir ma'lumotlarini o'z ichiga olgan hujjatlarni ularning roziligi asosida olish va mazkur shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlash;
- subyekt tomonidan taqdim etilgan shaxsga doir noaniq bo'lgan ma'lumotlarini o'z vaqtida aniqlashtirib berishni talab qilish;
- subyekt o'z shaxsiga doir ma'lumotlarini qayta ishlashga bergan roziligidan voz kechgan taqdirda, Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan asoslar mavjud bo'lsa, Subyektning rozilgisiz mazkur shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashni davom ettirishga haqli;
- shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashni subyektning roziligi bilan boshqa shaxsga shartnomaviy munosabatlar asosida topshirishga haqli, ma'lumotlarni qabul qiluvchiga shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini va qayta ishlash jarayonida ularning xavfsizligini ta'minlash majburiyatlari yuklatilishi sharti bilan.

9. Bank:

- subyektlarning shaxsga doir ma'lumotlarini amaldagi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tamoyillar va qoidalarga muvofiq shaxsga doir ma'lumotlar egalarining roziligi asosida qayta ishlaydi;
- qonunchilik talablariga muvofiq, subyektga yoki uning qonuniy vakiliga uning murojaatiga binoan Bankda ushbu subyektga tegishli shaxsga doir ma'lumotlari mavjudligi to'g'risida xabar beradi;
- agar subyektlarning shaxsga doir ma'lumotlari ularning o'zidan shaxsan olinmagan bo'lsa ushbu olingan shaxsga doir ma'lumotlariga qayta ishlov berishdan oldin Subyekt egalarini xabardor qiladi;
- qonun talablariga muvofiq, tegishli so'rovni olgan holda subyektga yoki uning qonuniy vakiliga subyektning shaxsga doir ma'lumotlari bilan bepul tanishish imkoniyatini taqdim etadi;

- subyektning shaxsga doir ma'lumotlarini aniqlashtirish, yo'q qilish choralarini ko'radi.

3-§. Shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ishning maqsadlari va tamoyillari

10. Bankda Subyektlarning shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlash maqsadlari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash;
- qonunchilik bo'yicha Bankka nisbatan yuklatilgan huquq va majburiyatlari doirasida vazifalarni amalga oshirish, shu jumladan vakolatli davlat idoralari murojaatlariga asosan shaxsga doir ma'lumotlarni taqdim etish;
- xodimlar bilan mehnat munosabatlarini tartibga solish;
- hamkor (kontragent)lar bilan ishlashni ta'minlash;
- Bank faoliyatini ichki axborot bilan ta'minlash uchun ma'lumotnoma materiallarini shakllantirish;
- subyektlar bilan qayta aloqani amalga oshirish, shu jumladan ularning so'rovlari va murojaatlarini qayta ishlash;
- reklama aksiyalari, so'rovlar, marketing, statistik va boshqa tadqiqot tadbirlarini o'tkazish.

11. Bankda shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash — xodimlar va boshqa subyektlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlash zarurligini hisobga olgan holda amalga oshiriladi, shu jumladan shaxsiy va bank sirlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilishni quyidagi tamoyillar asosida ta'minlash:

- shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash qonuniy va adolatli asosda amalga oshiriladi;
- shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash aniq, oldindan belgilangan va qonuniy maqsadlarga erishish bilan cheklanadi;
- shaxsga doir ma'lumotlarni to'plash maqsadlariga mos kelmaydigan shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashga yo'l qo'yilmaydi;
- shaxsga doir ma'lumotlar faqatgina ularni qayta ishlashning aniq maqsadlariga muvofiq holda qayta ishlanishi kerak;
- qayta ishlangan shaxsga doir ma'lumotlarning mazmuni va hajmi qayta ishlashning belgilangan maqsadlariga mos keladi;
- qayta ishlangan shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashning belgilangan maqsadlariga nisbatan ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik;
- shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashda shaxsga doir ma'lumotlarning to'g'riligi, ularning yetarililigi va kerak bo'lganda shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash maqsadlariga muvofiqligi (aktualligi) ta'minlanadi;
- shaxsga doir ma'lumotlarni saqlash shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash maqsadlarida talab qilinadigan vaqtdan ortiq bo'lmagan holda, subyektni aniqlashga imkon beradigan shaklda amalga oshiriladi, agar shaxsga doir ma'lumotlarni saqlash muddati qonunchilik bo'yicha yoki subyekt tomonidan, foyda oluvchi yoki uning kafili yordamida tuzilgan shartnomada belgilanmagan bo'lsa;
- qayta ishlangan shaxsga doir ma'lumotlar, qonun hujjatlariga zid bo'lmagan holda, qayta ishlash maqsadlariga erishilgandan so'ng yoki ushbu maqsadlarga erishish zarurati yo'qolgan taqdirda yo'q qilinadi yoki shaxssizlantiriladi.

4-§. Subyektlar toifalari

12. Bank quyidagi toifadagi subyektlarning shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlaydi:

- Bank xodimlarini, bank xodimlarining qarindoshlarini, bankning sobiq xodimlarini;
- shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlash uchun rozilik bergan, bank xodimlari hisoblanmagan, Bankka ishga kirish uchun bo'sh lavozimga ariza taqdim qilgan nomzodlar;

- fuqarolik-huquqiy shartnomalar tuzish va ularni ijrosini taminlash bilan bog‘liq bo‘lgan subyektlarning shaxsga doir ma’lumotlarini qayta ishlash;
- Bankning xodimlari hisoblanmagan bo‘lsada bank bilan munosabatlar doirasida Bankka shaxsga doir ma’lumotlarini qayta ishlash huquqini o‘z xohishi bilan taqdim qilgan sub’yektlarni;
- Bankka yo‘llagan murojaatlarning mualliflarini;
- boshqa subyektlar (ushbu Siyosatda belgilangan shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlash maqsadlarini amalga oshirishni ta’minlash uchun).

5-§. Shaxsga doir ma’lumotlar hajmi va toifalari

13. Qayta ishlangan shaxsga doir ma’lumotlarning toifalari, mazmuni va hajmi qayta ishlashning belgilangan maqsadlariga mos kelishi kerak.

Qayta ishlanuvchi shaxsga doir ma’lumotlar ularni qayta ishlashning belgilangan maqsadlariga nisbatan ortiqcha bo‘lmasligi kerak.

14. Shaxsga doir ma’lumotlarning irqiy, milliy, siyosiy qarashlar, diniy yoki falsafiy e’tiqodlar, sog‘liq-salomatlik holati, shaxsiy hayotiga tegishli maxsus toifalarini Bank tomonidan qayta ishlashga yo‘l qo‘yilmaydi (faqat oferta shartlari tasdiqlangan holatlar bundan mustasno).

15. Bank quyidagi shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlaydi:

- familiyasi, ismi, otasining ismi;
- familiyasi, ismi, otasining ismi o‘zgarganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- tug‘ilgan yili, oyi, sanasi va joyi, shuningdek shaxsini tasdiqlovchi hujjatdagi boshqa ma’lumotlar hamda haydovchilik guvohnomasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- foto va video tasvir;
- ta’lim, mavjud bo‘lsa maxsus bilim yoki tayyorgarlik, ilmiy daraja, ilmiy unvon, xorijiy tillarni bilish to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- kasb (lavozim), mutaxassislik bo‘yicha ma’lumotlar;
- qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda sug‘urta polisining raqami;
- oila a‘zolari haqida ma’lumotlar;
- xodimning, shuningdek uning oila a‘zolarining yashash joyi, ro‘yxatdan o‘tgan joyi, pochta manzili, telefon raqami to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- elektron pochta manzili;
- xodimning mehnat daftarchasidagi va uning shaxsiy ishidagi ma’lumotlar;
- jismoniy shaxslarning shaxsiy identifikatsiya raqami - JSHSHIR;
- harbiy ro‘yxatga olish hujjatlaridagi ma’lumotlar (agar mavjud bo‘lsa);
- hajmi va mazmunini belgilashda Bank O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga amal qiladigan boshqa shaxsga doir ma’lumotlar.

16. Bank tomonidan so‘ralgan va qayta ishlanadigan shaxsga doir ma’lumotlarning to‘liq ro‘yxati bankda shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlash va himoya qilishni tartibga soluvchi ichki qoidalarida va shakllarida olib boriladi.

6-§. Shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish tartibi va shartlari

17. Bank tomonidan shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlash qonunchilik hujjatlarida belgilangan normalarga muvofiq, Subyektning roziligi bilan amalga oshiriladi.

18. Shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlashga rozilik, agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, subyekt yoki uning vakili tomonidan uning roziligi olinganlik faktini tasdiqlash imkonini beradigan har qanday shaklda berilishi mumkin.

19. Bank, agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, subyektning rozilgisiz, shaxsga doir ma’lumotlarini uchinchi shaxslarga oshkor qilmaydi va tarqatmaydi.

20. Bank shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlashni ushbu shaxs bilan tuzilgan shartnoma asosida Subyektning roziligi bilan boshqa shaxsga topshirishga haqli.

Taqdim etilgan shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashni amalga oshiruvchi shaxs tomonidan amalga oshiriladigan barcha harakatlar (operatsiyalar) ro'yxati, qayta ishlash maqsadlari ushbu shaxs bilan tuzilgan shartnoma yoki unga qo'shimcha kelishuvda maxfiylikni saqlash va xavfsizlikni ta'minlash majburiyati, shuningdek, qayta ishlangan shaxsga doir ma'lumotlarni qonunchilik hujjatlariga muvofiq himoya qilishga doir talablar bo'lishi kerak.

21. Bank, qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmagan holda ichki axborot bilan ta'minlash maqsadida, subyektning roziligi bilan bank faoliyatiga doir umumiy foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotnomalar, shaxsga doir ma'lumotlarning ommaviy axborot tizimlarini yaratishi mumkin, ma'lumotlar tarkibiga uning familiyasi, ismi, otasining ismi, ish joyi, lavozimi, telefon raqami, elektron pochta manzili, subyekt tomonidan bildirilgan boshqa shaxsga doir ma'lumotlar kiritilishi mumkin.

22. Shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashni to'xtatish sharti — bular qayta ishlash maqsadlariga erishish, subyektning shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlashga rozilik muddati tugashi yoki roziligining bekor qilinishi, shuningdek noqonuniy ishlov berishning aniqlanishi bo'lishi mumkin.

23. Shaxsga doir ma'lumotlarni saqlash ushbu Siyosatda ko'rsatilgan qayta ishlash maqsadlarida talab qilinadigan vaqtdan ortiq bo'lmagan, subyektning aniqlashga imkon beradigan shaklda amalga oshiriladi, saqlash muddati qonunchilik hujjatlarida hamda shartnomada subyekt bo'lgan taraf, benefitsiar yoki kafil o'rtasida belgilanmagan hollar bundan mustasno.

24. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma'lumotlarini saqlashda Bank O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan ma'lumotlar bazalaridan foydalanadi.

7-§. Shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash usullari

25. Bank tomonidan shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

- shaxsga doir ma'lumotlarni avtomatlashtirilmagan usulda qayta ishlash;
- shaxsga doir ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan usulda qayta ishlash;
- shaxsga doir ma'lumotlarni aralash usulda qayta ishlash.

26. Shaxsga doir ma'lumotlarning axborot tizimidagi yoki bunday tizimdan olingan shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash avtomatlashtirish vositalaridan foydalanmasdan (avtomatlashtirilmagan holda) amalga oshirilgan deb hisoblanadi, bunday hollarda subyektlarga nisbatan shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanish, aniqlashtirish, tarqatish, yo'q qilish kabi harakatlar shaxsning bevosita ishtirokida amalga oshiriladi.

8-§. Shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashda Bankning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar

27. Bank ushbu Siyosat va shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish sohasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni Internet tarmog'ida umumiy foydalanishda e'lon qilishi mumkin.

28. Bank shaxsga doir ma'lumotlarni ularga ruxsatsiz yoki tasodifiy kirishdan, yo'q qilishdan, o'zgartirishdan, blokirovka qilishdan, nusxa ko'chirishdan, taqdim etishdan, tarqatishdan, shuningdek, shaxsga doir ma'lumotlarga nisbatan boshqa noqonuniy harakatlardan himoya qilish choralarini ko'radi.

29. Tashkiliy chora-tadbirlar:

- shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashni tashkil etish uchun mas'ul shaxsni tayinlash;
- shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash va himoya qilishni tartibga soluvchi ichki qoidalarini qabul qilish;
- subyektlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakolatli organning qonunchilik hujjatlarida belgilangan hollarda xabardor qilish;
- shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bevosita shug'ullanadigan Bank xodimlarini shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari va Bankning shaxsga

doir ma'lumotlari bo'yicha ichki qoidalari qoidalari bilan tanishtirish, shu jumladan shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish;

- shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashning qonunchilik hujjatlariga, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish talablariga, ushbu Siyosatga, ichki qoidalarga muvofiqligi bo'yicha ichki nazorat va (yoki) auditni amalga oshirish;

- qonunchilik hujjatlariga muvofiq shaxsga doir ma'lumotlarni shaxssizlantirish;

- qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashni tugatish va yo'q qilish.

30. Texnik chora-tadbirlar:

- Shaxsga doir ma'lumotlarni texnik muhofaza qilish sohasidagi nazorat qiluvchi idoralarning talablariga muvofiq texnik himoya talablarini bajarish;

- shaxsga doir ma'lumotlarni texnik himoya qilish sohasida ilg'or tajribalarni qo'llash;

- qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa choralarni qo'llash.

31. Shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlanadigan axborot tizimlariga bankning departament (xizmat) yoki boshqarma yoki tarkibiy tuzilma rahbalaridan biri tayinlanadi.

9-§. Shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash va yo'q qilish muddatlariga qo'yiladigan talablar

32. Bankda Subyektlarning qayta ishlanadigan shaxsiga doir ma'lumotlarini qayta ishlash shartlariga qo'yiladigan talablar qonunchilik talablariga muvofiq ichki qoidalar bilan belgilanadi.

33. Shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash shartlari subyekting shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlashga roziligi bilan belgilanadi.

34. Shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash huquqiy asoslar paydo bo'lguncha boshlanmasligi kerak.

35. Shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash maqsadlariga erishilganda, qayta ishlashning qonunchilik hujjatlarida belgilangan qonuniy asoslari yo'qolganda, subyekt tomonidan shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilikni qaytarib olinganda tugatiladi.

36. Qayta ishlash muddati tugagandan so'ng yoki boshqa qonuniy asoslar mavjud bo'lganda, shaxsga doir ma'lumotlar statistik yoki boshqa tadqiqot maqsadlarida foydalanish uchun normativ-huquqiy normalar talablariga muvofiq yo'q qilinadi yoki egasizlantiriladi.

10-§. Shaxsga doir ma'lumotlarni transchegaraviy uzatish

37. Shaxsga doir ma'lumotlarni mulkdor va (yoki) bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga uzatish shaxsga doir ma'lumotlarni transchegaraviy uzatishdir.

38. Shaxsga doir ma'lumotlarni transchegaraviy uzatish shaxsga doir ma'lumotlar subyektlarining huquqlari bir xilda himoya qilinishini ta'minlovchi chet davlatlar hududiga amalga oshiriladi.

39. Shaxsga doir ma'lumotlarni bir xilda himoya qilinishini ta'minlamaydigan chet davlatlar hududiga transchegaraviy uzatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan holatlarda yo'l qo'yiladi.

40. Ma'lumotlarni oluvchi tashkilot bilan uzatishdan avval maxviylik bo'yicha bitim imzolanishi shart.